



UDK:80.81.111.32

Go'zal MAXAMATXO'JAEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: Ulugbekovna5@gmail.com

Alfraganus University professori, f.f.d D.Hoshimova taqrizi asosida

BAYNALMILAL SO'ZLARNING TARJIMA MUAMMOLARI (INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz, rus va o'zbek tillarida ishlatiladigan ba'zi baynalmilal so'zlarning etimologiyasi yoritilgan. Har bir tilning tuzilishi va so'z boyligi bir-biridan farq qiladi, lekin barcha tillarda ba'zi umumiy prinsiplarga asoslanadi. Bizning va boshqa tillarda tez-tez eshitadigan yoki ishlatadigan ba'zi so'zlar boshqa tillardan olingan bo'lib, ular chet tilidan o'zlashtirilgan.

Kalit so'zlar: So'z boyligi, termin elementlari, o'zlashtirish, etimologiya, leksik material, lotin tili.

CHALLENGES IN TRANSLATING INTERNATIONAL WORDS (ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES)

Annotation

This article explores the etymology of international words commonly used in our lives across English, Russian, and Uzbek languages. While languages vary in structure and vocabulary, they all share certain common principles. Some foreign words that we frequently encounter and use in both our own and other languages are derived from other languages and borrowed from foreign origins.

Key words: Vocabulary, term element, borrowings, etymology, lexical material, Latin language.

ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ (АНГЛИЙСКОГО, РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В этой статье рассматривается этимология интернациональных слов, применяемых в повседневной жизни на английском, русском и узбекском языках. Языки отличаются по своей структуре и лексическому составу, однако все они подчиняются общим принципам. Некоторые иностранные слова, которые мы часто слышим и используем в родном и других языках, имеют иностранное происхождение и были заимствованы из различных языков.

Ключевые слова: Лексика, терминологический элемент, заимствования, этимология, лексический материал, латинский язык.

Kirish. XXI asrda tilshunoslikda lingvistik hodisalarni tahlil qilishda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Tadqiqot usullari va o'rganilayotgan ob'ektlar haqidagi yondashuvlar yangilandi. Chet tili o'rganish jarayoni ilm-fan va texnologiyalardagi yangi atamalarining keng tarqalishi, ularning kundalik tilga tez kirib borishi bilan tavsiflanadi. Bu, tilshunoslikda yangiliklar va o'zgarishlarga tezkor moslashish, global kommunikatsiyaning ta'siri va zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga olgan murakkab jarayonni aks ettiradi. Shuningdek, ilmiy-texnik ma'lumotlarning tez rivojlanishi tufayli chet tili orqali texnikaviy matnlarni ichidagi terminlarning tarjimasi mobaynida bu texnik metodlarni qo'l kelishi kun sayin ahamiyatli masalaga aylanmoqda.

Tarix davomida tillar doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lgan va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda. Hozirda tilshunoslikda bir necha tillar masalan o'zbek va rus yoki rus, ingliz va o'zbek tillaridagi uchraydigan o'zaro bog'liqliklar va ta'sirlarni aynan shu sohada o'rganish va aynan shu ta'sirlar til tuzilishiga qanday natijalar bilan ta'sir qilayotganini ko'rsatish bevosita ommalashib kelmokda. Bunda oddiy misol sifatida bir tilning so'zining boshqa tilga o'zlashishini ko'rsatish mumkin. Odatda, so'zning o'zlashuvi shu so'z bilan bog'liq bo'lgan ob'ekt yoki tushunchaning o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'ladi. Har bir so'zning ortida o'zining tarixiy rivojlanishi yotadi. Til esa, boshqa madaniyatlar kabi, bizning milliy va madaniy xususiyatlarimizni aks ettiruvchi eng muhim vositadir.

So'zlarni o'zlashtirish ko'pincha ularning ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, ingliz tilida ishlatiladigan "chance" so'zi, aslida fransuz tilidan olingan bo'lib, ingliz tilida «omad» ma'nosida keladi, biroq o'zbek tilida "shans" so'zi faqat «omad ehtimoli» yoki «imkoniyat» degan ma'nonigina bildiradi. Xalqaro so'zlar o'zlashishida mutaxassislarning so'zlashuv jarayonidan olingan ba'zi bir so'zlar boshqa bir tilga o'tadi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Madaniy va iqtisodiy aloqalarning kuchayishi tillarning o'zaro xalqlar o'rtasidagi ta'siri bilan bog'liq bo'lib, bu o'zaro aloqalar natijasida qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarda maxsus so'zlar fondi shakllanadi. Ushbu so'zlar fan va texnika sohalarining maxsus terminologiyasi

bilan bog'liqdir. O'zlashgan so'zlar til tizimiga moslashgan holda, ular o'zining chet eldan kelganligini sezilmasdan qabul qilinadi, va faqat etimologik tahlil orqali uning kelib chiqishi aniqlanishi mumkin. Endi esa o'zbek va rus tillariga ingliz tilidan ko'chirib o'tqazilgan so'zlarni misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

Aviatsiya. XX asr boshlarida rus tilida paydo bo'lgan va fransuz tilidan o'zlashtirilgan so'z. Frantsuz tilida bu so'z 'avis' (qush) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, lotin tilidan olingan.

Avtobus. Ushbu so'z rus tilida shunchalik kuchli ildiz otganiki, u deyarli ruscha so'z sifatida qabul qilinadi. Ammo, aslida, avtobus so'zi XX asr boshlarida ingliz tilidan olingan va 'auto' (avtomobil) + 'bus' (yengil mashina) qo'shilishi orqali tashkil topgan.

Ilmiy muloqotda o'ziga xos grammatik xususiyatlar mavjud. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan matnlarda ba'zi hollarda leksik ma'no yo'qolib, fe'llar mavhum ma'nolarga ega bo'ladi.

Misolalar:

"It is believed that the project will succeed" – Loyiha muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimol qilinadi.

"The results suggest a positive outcome" – Natijalar ijobiy natijani ko'rsatadi.

"She seemed tired after the meeting" – U yig'ilishdan keyin charchagan ko'rindi.

Bu holatlarda ot birikmalarining o'rniga semantik yuklama fe'llarga tushadi. Ya'ni, fe'llar bu gaplarda grammatik jihatdan muhim vazifani bajaradi. Shuningdek, ingliz tilidagi ilmiy uslubda mavhum fe'llar ko'p uchraydi:

"The experiment was conducted under controlled conditions" – Tajriba nazorat qilingan sharoitda o'tkazildi.

"Several theories have been proposed over the years" – Bir necha nazariyalar yillar davomida taklif etilgan.

Bu kabi hollarda, tilning aniqligi va ma'nosi ilmiy muloqotning to'g'ri va ravon bo'lishiga yordam beradi.

Shu tarzda, til o'zgarib, yangi so'zlar va iboralar bilan boyib boradi, bu esa ilmiy va texnik sohalarida uning rivojlanishini aks ettiradi.

Qariyb 300 yildirki, tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, shet so'zlarning o'zlashish sabablari va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi roli va vazifalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Dunyodagi rivojlangan tillarning deyarli hammasida ozmi-ko'pmi o'zlashgan so'zlar, iboralar ushrashi, hatto ayrim tillarning aralashib ketganlik xususiyatlari avvalo tilshunoslarning, qolaversa, tilga ye'tibori bo'lgan har bir kishining ham diqqatini o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa, shet so'zlarning qabul qiluvshi til qonuniyatlariga tezda bo'ysunishi, yotligi bilinmay huddi ona tilinikiday moslashib ketaverishi kabi obyektiv omillar so'z o'zlashuvi masalasini tilshunoslikning yeng dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi.

Rus tilida shet so'zlar miqdori 40 foizdan dan sal ortiqroq, shundan 26 foizdan sal ortiqrog'i rus tiliga tegishlidir. Umuman, rus tilidagi o'zlashgan so'zlar miqdori unsha katta hissani tashkil yetmaydi. Shunki rus va yevropa tillarining deyarlisida o'zlashgan so'zlar 60 foizdan kam yemas. Buning ustiga, nomi o'zlashgan deb atalgan so'zlarning hammasi ham shetdan o'zlashavermagan.

Bir tildan boshqa tilga so'z o'tishi ijobiy hol. Shunisi ham borki, rivojlanishi faqat o'z ishki imkoniyatlari doirasi bilan sheklangan biron-bir bo'lmagan kabi, rivojlanishi faqat tashqi imkoniyat – boshqa tillardan lisoniy birliklar olishga asoslangan til ham bo'lmaydi. So'z o'zlashtirish deganda boshqa tilning barsha so'zlarining olinishi yemas, balki ulardan yehtiyojga muvofiqlarining olinishi tushuniladi. Shuning ushun ham so'z o'zlashishi tillar rivojlanishining tashqi omillari sirasiga kiradi.

Darhaqiqat, tashqi olam to'la-to'kis so'z orqali yelakdan o'tadi, tashqi olamning nomlanishi zarur bo'lgan narsa-hodisalari so'z tomonidan "qidiriladi". Zero so'z – tilegalarining jamoaviy xotirasi, madaniy yodgorligi, xalq hayotining ko'zgusi. O'zlashtirilgan so'zlar ham ana shu sifatlardan holi yemas. Ular shu xalqning turmush olamiga oshqish, umuman, o'zlashmalar barsha bilimlarga yo'l oshadigan kalitdir.

Ma'lumki, leksika va uning har xil qatlamlari o'z xarakteriga ko'ra turlisha "tovlanib", o'ziga xos lisoniy qiymat kasb yetadi. Bu narsa leksikaning o'ziga xos murakkab lisoniy sath yekanligidan dalolat beradi. Har bir xalq va uning tilining boshqa xalqlar va ularning tili bilan o'zaro aloqadorligi ham leksikada aks yetadi. Shu bois til leksikasini ko'zguga o'xshatish joiz bo'ladi. Ko'zgu unga qaratilgan har bir narsaning aksini namoyish yetgani kabi, til leksikasi ham ijtimoiy va ruhiy olamning barsha xususiyatlarini namoyish qiladi. Shu sabab ham jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy olamidagi har bir yangilik, har bir o'zgarish yeng avvalo lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi.

Tahlil va natijalar.

Ushbu maqolada baynalminal (xalqaro) so'zlarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi o'zlashtirish jarayoni, ularning etimologiyasi va tarjima muammolari muhokama qilindi. Baynalminal so'zlar asosan boshqa tillardan olingan va o'sha tillarda ishlatilgan tushunchalar yoki obyektlarni ifodalaydi. Tillar o'rtasida o'zaro aloqalar, ayniqsa ilmiy-texnik terminologiyada, yanada ko'proq sezilmoqda. O'zlashtirilgan so'zlar har bir tilning grammatik va fonetik tuzilishiga moslashgan holda o'zgaradi. Masalan, "aviatsiya" so'zi rus tilida frantsuz tilidan, "avtobus" so'zi esa ingliz tilidan o'zlashtirilgan. Bu jarayonlar tilning boyishiga yordam beradi, lekin ba'zi hollarda so'zning asl ma'nosi o'zgaradi.

Bundan tashqari, ilmiy muloqotda ingliz tilidagi mavhum fe'llar va grammatik strukturalarning o'zbek va rus tillariga tarjimai qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu holatlarda, ba'zan so'zning semantik ma'nosi yo'qolishi yoki fe'llarning mavhumligi aniqroq bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "It seems very interesting" jumlasini o'zbek tiliga tarjima qilganda, "Bu juda qiziqarli tuyuladi" deb ifodalash mumkin, lekin bu so'zning grammatik ma'nosi biron farq qiladi.

Natijalar. Baynalminal so'zlar o'zlashtirilgan tillarda ko'pincha fonetik va grammatik o'zgarishlarga uchraydi.

O'zlashtirish jarayonida so'zning ma'nosi va fe'llarning ishlatilishi ba'zan o'zgaradi.

Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda til strukturasidagi farqlar, ayniqsa mavhum fe'llar va ot birikmalarining ishlatilishida qiyinchiliklarga olib keladi.

Ingliz, rus va o'zbek tillarida o'zlashtirilgan so'zlar turli xil ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlarga moslashadi.

Xulosa va takliflar. Baynalminal so'zlar, tillar o'rtasidagi o'zaro aloqalar natijasida har bir til tizimiga o'zlashtirilgan. Bu so'zlarning tarjimai va ishlatilishi tildan tildagi farqlarni, tilshunoslikning rivojlanishini va madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi. So'zning o'zlashtirilishi, uning asl ma'nosi va grammatik xususiyatlariga ta'sir qiladi. Shuningdek, tarjimonlar va tilshunoslar baynalminal so'zlarning etimologiyasini o'rganishda ehtiyotkor bo'lishi kerak, chunki ba'zan so'zning ma'nosi va fe'llarning ishlatilish usuli o'zgaradi.

Baynalminal so'zlarni tarjima qilishda, ayniqsa ilmiy-texnik sohalarida, ularning etimologiyasi va tarixini o'rganish kerak.

Tarjimonlar mavhum fe'llarni o'zgartirishda tilning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini hisobga olishlari kerak.

O'zlashtirilgan so'zlarning ma'nosini aniq va to'g'ri etkazish uchun ularning tilshunoslik jihatlariga e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Крылов Г.А. Этимологический словарь русского языка-СПб.: ООО «Полиграфуслуги», 2015
2. Ожегов С.И., Н. Ю. Шведовой « Толковый словарь русского языка» -М.,2010г
3. Norrish, J. (1983). Language Learner and Language Learning. Oxford University Press.
4. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
5. Neufeld, E. (2000). The Lexical Influence of English on Russian. Moscow: Akademiya.
6. Shakurova, I. (2009). O'zbek va ingliz tillarida o'zlashtirilgan so'zlar. Tashkent State University Press.
7. Tennyson, R. (2001). Translation of Scientific Texts. Academic Press.
8. Lyons, J. (1981). Language and Linguistics: An Introduction. Cambridge University Press.
9. Sadykova, L. (2015). Bilingualism and Translation Studies: The Case of Russian and Uzbek. Tashkent: Teacher's Publishing House.
10. Khakimov, B. (2005). Tarjima nazariyasi. Tashkent: Fan.
11. Alimov, A. (2017). O'zbek tili va boshqa tillar o'rtasida tarjima qilish xususiyatlari. Tashkent: Yangi nashr.
12. Zubeidova, A. (2010). Lingvistik tahlil va tarjima. Moscow: International Publishing House.